

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 12 (5) – 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

## Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|                                                                                                                                                                                       |       |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i><br>O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....                                                                | 13-16 |
| <i>Равшанов Махмуд</i><br>ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ .....                                                                                             | 17-19 |
| <i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i><br>FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR<br>TARIXIDAN .....                                                              | 20-24 |
| <i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i><br>SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI .....                                                 | 25-30 |
| <i>Esanova Nilufar</i><br>O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA .....                                                                                        | 31-36 |
| <i>Asadova Ra'no Baymanovna</i><br>OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK:<br>O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...                                | 37-40 |
| <i>Aytmuratova Janilsin</i><br>FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE<br>IN KARAKALPAKSTAN .....                                                               | 41-44 |
| <i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i><br>JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR<br>(SHARQ MANBALARI).....                                    | 45-49 |
| <i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i><br>ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR .....                                                                               | 50-55 |
| <i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i><br>ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN<br>(1991-1996-YILLAR MISOLIDA)..... | 56-60 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i><br>XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI:<br>TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR .....                                                     | 61-65 |
| <i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY<br>ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....             | 66-69 |
| <i>Fayzullayev Oybek</i><br>O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH<br>(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA) .....                                                | 70-74 |
| <i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i><br>SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK<br>YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI .....                                                 | 75-79 |
| <i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i><br>O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI .....                                                                                     | 80-84 |

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Gabbarov Sabit Nietali'evich*

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA  
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI  
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) ..... 85-89

*Xolmurotov Fozil*

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR  
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK ..... 90-103

*Raximov Faxriddin Shavkatovich*

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING  
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI ..... 104-116

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI  
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI ..... 117-121

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi*

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA  
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI ..... 122-128

*Jumayeva Shaxlo Suyunovna*

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI ..... 129-133

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich*

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI ..... 134-138

*Danabayev Xurshid Napasovich*

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI ..... 139-142

*Shokirov Tohirjon*

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI  
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) ..... 143-148

*Raxmatov Alisher Obidovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA  
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI ..... 149-152

*Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna*

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:  
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR ..... 153-158

*Axatova Dildora Axtamovna*

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI ..... 159-163

*Toshiboboyev Maksud Jalilovich*

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR  
DIALEKTIKASI ..... 164-168

*Abdiyev G'ayrat Ergashevich*

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY  
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI ..... 169-174

|                                                                                                                                                                     |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i><br>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY<br>QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR .....                        | 175-179 |
| <i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i><br>RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI:<br>NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....                                    | 180-187 |
| <i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i><br>YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI<br>SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                | 188-192 |
| <i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i><br>POSTHAQIQAT SIYOSATI:<br>ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA .....                                      | 193-198 |
| <i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i><br>AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING<br>TRANSFORMATSIYASI.....                                      | 199-203 |
| <i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i><br>AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING<br>YANGI MODEL.....                                           | 204-207 |
| <i>Bobamirzayev Abdulaziz</i><br>RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....                                                           | 208-211 |
| <i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i><br>AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA<br>AYRIM MULOHAZALAR .....                                      | 212-216 |
| <i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i><br>AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING<br>FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI .....                           | 217-221 |
| <i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i><br>FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING<br>MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI .....                                                   | 222-226 |
| <i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i><br>VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING<br>TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....                  | 227-231 |
| <i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i><br>AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY<br>TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....                                     | 232-237 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                |         |
| <i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i><br>O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING<br>ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI..... | 238-245 |



|                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i><br>СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ<br>КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ .....                         | 246-258 |
| <i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i><br>СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ<br>И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА ..... | 259-264 |
| <i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i><br>THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY" .....                                                                          | 265-269 |
| <i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i><br>POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS:<br>AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....                       | 270-275 |
| <i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i><br>QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK<br>XUSUSIYATLARI .....                                                           | 276-279 |
| <i>Isroilova Manzura Jamolovna</i><br>FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                                              | 280-284 |
| <i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i><br>YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY<br>TAJRIBADAGI IFODASI.....                                               | 285-290 |
| <i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i><br>THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION<br>OF NEWSPAPER HEADLINES.....                                                           | 291-294 |
| <i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i><br>LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI ....                                                                 | 295-302 |
| <i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI<br>YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....              | 303-307 |
| <i>Mardanova Mohira Davron qizi</i><br>THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS .....                                                                                      | 308-311 |
| <i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i><br>COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS<br>IN ENGLISH AND UZBEK PROSE .....                                            | 312-315 |
| <i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i><br>SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI .....                                                                                    | 316-319 |
| <i>Rustamov Dilshodbek</i><br>NUTQIY MULOQOT TAVSIFI .....                                                                                                                         | 320-323 |
| <i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK<br>XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI .....                             | 324-329 |
| <i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI:<br>TUZILISHI, XUSUSIYATLARI .....                                             | 330-333 |

|                                                                                                                                                                                         |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI:<br>NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI ..... | 334-342 |
| <i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i><br>СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...                                                                                | 343-345 |
| <i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i><br>O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH .....                                                                                 | 346-350 |
| <i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i><br>XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI .....                                                                                        | 351-355 |
| <i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i><br>ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ:<br>ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ .....                                                  | 356-361 |
| <i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i><br>PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS .....                                                                   | 362-370 |
| <i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING<br>SHAKLLANISH USULLARI.....                                                            | 371-373 |
| <i>Rajat Choudhary</i><br>LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE .....                                                                                                                | 374-377 |
| <i>Клеблеева Резеда Радионовна</i><br>МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА<br>ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА .....                                                                           | 378-381 |
| <i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i><br>RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI<br>DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH .....              | 382-385 |
| <i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i><br>SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI .....                                                                                | 386-389 |
| <i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i><br>THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION<br>IN GLOBAL ENGLISH.....                                                                 | 390-394 |
| <i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i><br>THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM<br>RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....                                                | 395-399 |

## **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                                                                                   |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i><br>JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....                                                                                                                 | 400-407 |
| <i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i><br>PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI<br>MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                                        | 408-415 |
| <i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i><br>SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI<br>SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING<br>NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI..... | 416-428 |

|                                                                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI<br>OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 429-435 |
| <i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i><br>ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI .....                                                                                                                         | 436-443 |
| <i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i><br>RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....                                                                                                                     | 444-450 |
| <i>Ismailov Bekjon Salixovich</i><br>NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING<br>HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI .....                                                                                              | 451-456 |
| <i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i><br>DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI<br>XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....                                                                               | 457-463 |
| <i>Almatov Sanjar Zokirovich</i><br>DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....                                                                                                                                  | 464-467 |
| <i>Djuraev Farxod Eshboevich</i><br>JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI<br>USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....                                                                                      | 468-473 |
| <i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i><br>O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH<br>SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....                                                           | 474-481 |
| <i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i><br>МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ:<br>ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ<br>КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ .....                                               | 482-488 |
| <i>Olimov Abbosjon</i><br>SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI:<br>TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....                                                                                                                     | 489-494 |

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                                                            |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i><br>TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV<br>KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI .....              | 495-500 |
| <i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i><br>НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА .....                                                                                       | 501-506 |
| <i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i><br>РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА<br>РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ<br>УЧАЩИХСЯ ..... | 507-510 |
| <i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i><br>TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI<br>SHAKLLANTIRISH .....                                                                     | 511-515 |

|                                                                                                                                                                                                                |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i><br>TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH<br>TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                               | 516-519 |
| <i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI .....                                                                                                    | 520-526 |
| <i>Djalolov Furqat Fattohovich</i><br>TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH<br>TEKNOLOGIYASINING ROLI.....                                                                                         | 527-531 |
| <i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i><br>PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD<br>PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION ..... | 532-538 |
| <i>Habibullayeva Shoirra</i><br>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN<br>FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI .....                                                                    | 539-542 |
| <i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i><br>TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..                                                                                                    | 543-548 |
| <i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i><br>TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA<br>RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....                                            | 549-553 |
| <i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i><br>МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ .....                                                                              | 554-556 |

**Received:** 20 November 2025

**Accepted:** 1 December 2025

**Published:** 15 December 2025

*Article / Original Paper*

## **TRANSFORMATION OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN VIRTUAL COMMUNICATION AND ITS ETHICAL DIMENSIONS**

**Muhammadiyev Bekzod Oktamjon ogli**

Assistant, Samarkand Branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

E-mail: [bekzod200599@gmail.com](mailto:bekzod200599@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the transformation of interpersonal relationships within the context of virtual communication and analyzes the factors influencing their development and dynamics. It highlights the socio-psychological and ethical challenges emerging in an information society where communication increasingly relies on digital technologies. The study explores the specific characteristics of virtual interactions, changes in identity construction, and the formation of responsibility, trust, respect, and ethical norms in online environments. The article aims to assess the impact of the digital sphere on social relations and propose recommendations for fostering stable ethical behavior in virtual communication spaces.

**Keywords:** virtual communication, interpersonal relationships, ethical norms, digital communication, identity, social networks, information society.

## **VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI**

**Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada virtual muloqot sharoitida shaxslararo munosabatlarning o'zgarishi, ularning mazmuni va shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Axborotlashgan jamiyatda kommunikatsiya jarayonlarining raqamli vositalar orqali amalga oshirilishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik va axloqiy muammolar yoritiladi. Tadqiqotda virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, identifikatsiya jarayonining o'zgarishi, onlayn muhitda shaxslararo mas'uliyat, ishonch, hurmat va etik me'yorlarning shakllanishi kabi masalalar o'rganiladi. Maqola raqamli muhitning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini baholash hamda axloqiy xulq-atvorning barqarorligini ta'minlashga oid takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** virtual muloqot, shaxslararo munosabatlar, axloqiy me'yorlar, raqamli kommunikatsiya, identifikatsiya, ijtimoiy tarmoq, axborotlashgan jamiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N41>

**Kirish.** So'nggi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy, madaniy va psixologik hayotida tub o'zgarishlar yuzaga keltirdi. Raqamli muhitning kengayishi va internet texnologiyalarining ommalashuvi natijasida muloqotning yangi shakllari shakllandi, shaxslararo munosabatlarning mazmuni, shakli va dinamikasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Virtual muloqot bugungi kunda insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy vositalaridan biriga aylandi; u nafaqat kommunikatsiya

jarayonlarini tezlashtirdi, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda yangi psixologik va axloqiy tamoyillarni yuzaga keltirdi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning virtual makonda faol ishtiroki uning o'zini anglash, o'zini namoyon etish va boshqalar bilan muloqot qilish jarayonlarida sifat jihatidan yangi bosqichni vujudga keltiradi. Biroq ushbu jarayon shaxslararo munosabatlarda bir qator noaniqliklar, axloqiy ziddiyatlar, kommunikativ mas'uliyatning susayishi, shaxsning anonimlikka moyilligi, ijtimoiy rollarning sun'iy ravishda o'zgarishi kabi muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Mazkur holatlar virtual kommunikatsiyaning nafaqat texnologik, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy, ruhiy va axloqiy jihatlarini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari – masofaviylik, tezkorlik, anonimlik, vizual obrazlarning ixtiyoriy konstruksiyasi, ijtimoiy mas'uliyatning qisman yo'qolishi, shaxslararo chegaralarning buzilishi – an'anaviy muloqot jarayonida kuzatilmaydigan yangi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yuzaga keltirmoqda. Bularning barchasi shaxslararo ishonch, axloqiy me'yorlarni anglash va ularga amal qilish, raqamli makonda hurmat va tolerantlik kabi qadriyatlarning qay darajada namoyon bo'layotganini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Raqamli kommunikatsiya jarayonlarining kengayishi bilan birga virtual makonda axloqiy bo'shliqlar, noadolatli munosabat, kiberbulling, tahdidlar, manipulyatsiyalar, dezinformatsiya va sun'iy identifikatsiya kabi salbiy illatlar ham kuchaymoqda. Bu esa virtual muloqotning axloqiy me'yorlar tizimi bilan uyg'unlashuvi, shaxsning axloqiy pozitsiyasini mustahkamlash va raqamli madaniyatni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu sababli virtual muloqotda shaxslararo munosabatlar transformatsiyasini teran ilmiy tahlil qilish axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'riladi.

Mazkur mavzuning ahamiyati shundaki, bugungi yosh avlodning asosiy muloqot maydoni aynan internet-platformalar va ijtimoiy tarmoqlar bo'lib, ularning ma'naviy olami, axloqiy qarashlari, ijtimoiy moslashuvchanligi, shaxs sifatida kamol topishi ko'p jihatdan virtual kommunikatsiya tajribasiga bog'lanib bormoqda. Shu bois muloqotning virtual shaklida yuzaga kelayotgan axloqiy me'yorlar tizimini o'rganish nafaqat ilmiy zarurat, balki jamiyat barqaror taraqqiyoti uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada virtual muloqot jarayonida shaxslararo munosabatlarning transformatsiyasi, unga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar, shuningdek, ushbu o'zgarishlarning axloqiy oqibatlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot orqali raqamli muloqotning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib, virtual makonda axloqiy mas'uliyatni yuksaltirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ishlab chiqiladi.

Ushbu tadqiqot virtual muloqot sharoitida shaxslararo munosabatlarning transformatsiyasi va uning axloqiy jihatlarini kompleks yondashuv asosida o'rganishni maqsad qilgan. Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy-analitik, sotsiologik, psixologik, etik-normativ, komparativ, kontent-tahlil hamda tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Falsafiy-analitik yondashuv virtual kommunikatsiya fenomenining mohiyatini, insonning raqamli makondagi mavjudligi, identifikatsiya jarayoni va axloqiy pozitsiyasining shakllanishi kabi masalalarni chuqur anglashga imkon berdi. Bu yondashuv axborotlashgan jamiyat sharoitida muloqot jarayonini keng ijtimoiy-falsafiy kontekstda baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotda qo'llangan sotsiologik yondashuv orqali virtual maydondagi ijtimoiy xatti-harakatlar, o'zaro ta'sir mexanizmlari, ijtimoiy rollarning o'zgarishi va onlayn

hamjamiyatlardagi munosabatlar tizimi tahlil qilindi. Mazkur yondashuv shaxslarning raqamli muhitdagi ijtimoiy faolligini va ular o'rtasida shakllanayotgan yangi kommunikativ aloqalarni empirik jihatdan aniqlashga yordam berdi. Psixologik yondashuv esa shaxsning virtual makondagi emotsional holati, motivlari, o'zini tutish strategiyalari, anonimlikning psixologik ta'siri, raqamli agressiya va emotsional masofalanish kabi jarayonlarni o'rganishga imkon yaratdi. Bu asosan individning virtual muhitga moslashuvi va uning psixologik xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Etik-normativ tahlil orqali virtual makonda axloqiy me'yorlarning shakllanishi va buzilishi, mas'uliyat va burch tushunchalarining qay darajada namoyon bo'layotgani, onlayn kommunikatsiyada hurmat, ishonch va tolerantlik kabi qadriyatlarning holati o'rganildi. Raqamli makonda kuzatilayotgan kiberagressiya, dezinformatsiya, manipulyativ xabarlar va axloqiy bo'shliqlar aynan ushbu yondashuv orqali baholandi. Qiyosiy tahlil an'anaviy muloqot va virtual muloqot o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ochib berib, shaxslararo munosabatlarning qanday sifat o'zgarishlariga duch kelayotganini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot davomida kontent-tahlil usulidan foydalanilib, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va virtual platformalardagi real muloqot namunalarining mazmuni, agressiv xabarlar, etik buzilishlar, kommunikativ strategiyalar va til madaniyatiga oid unsurlar tahlil qilindi. Natijalarning umumiy tizimdagi o'rnini aniqlash uchun tizimli yondashuv qo'llanilib, shaxs, jamiyat, texnologiya va axloqiy me'yorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlab borildi. Tadqiqot natijalari ilmiy umumlashtirish hamda modellashtirish asosida tahlil etilib, virtual muloqotda yuzaga kelayotgan axloqiy muammolarni yorituvchi konseptual model ishlab chiqildi.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqot davomida virtual muloqot jarayoni va uning shaxslararo munosabatlarga ta'siri ko'p qirrali jihatlari bilan tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi insonlar o'rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o'zgartirib, an'anaviy ijtimoiy aloqalardan farq qiluvchi yangi munosabatlar tizimini shakllantirmoqda. Virtual maydonning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan masofaviylik shaxslararo yaqinlik va ishonchning shakllanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, u odamlar o'rtasidagi muloqotni qulaylashtirib, vaqt va makon chegaralarini qisqartirsa, boshqa tomondan esa real insoniy aloqa, hissiy samimiyat va empatiya darajasining pasayishiga olib keladi.

Analitik tahlillar shuni ko'rsatdiki, onlayn muloqot jarayonida shaxs identifikatsiyasining o'zgarishi muhim fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Foydalanuvchilar turli virtual obrazlar, profil dizaynlari va anonimlik orqali o'z shaxsining real hayotdagi ko'rinishidan farq qiluvchi variantlarini yaratadi. Bu holat bir tomondan shaxsning o'zini erkin ifoda etish imkonini kengaytirsa, boshqa tomondan ijtimoiy mas'uliyatning susayishi, yolg'on identifikatsiya va kommunikativ manipulyatsiya kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Natijalardan ma'lum bo'lishicha, anonimlik darajasining oshishi virtual muloqotda axloqiy me'yorlarning buzilishiga olib keluvchi omillardan biri sifatida maydonga chiqadi.

Psixologik tahlillar virtual muhitda agressiv xatti-harakatlar, kiberbulling, haqoratli til, manipulyativ xabarlar va dezinformatsiyaning keng tarqatilishi bilan bog'liq muammolarni ochib berdi. Bu jarayonlarning kuchayishi shaxslararo munosabatlarning beqarorlashtiruvchi omillaridan biri bo'lib, virtual muhitda axloqiy madaniyatning sust darajada shakllanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'layotgan

agressiv kommunikatsiya ko'pincha ijtimoiy masofalanish, real javobgarlikning yo'qligi va ijtimoiy roldan ajralish bilan izohlanadi.

Sotsiologik tahlillar virtual muloqotning jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya jarayonlariga ta'sirini yoritdi. Shaxslararo munosabatlar ko'proq qisqa muddatli, situativ va yuzaki xarakter kasb etayotgani kuzatildi. Virtual muhitda turli guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlar qisqargandek ko'ringani bilan, real muloqotdagi ijtimoiy pozitsiya, yosh, tajriba va madaniy kapital bilan bog'liq farqlar virtual aloqalarda ham saqlanib qolishi aniqlandi. Shu bilan birga, onlayn platformalar ba'zi hollarda ijtimoiy integratsiyani kuchaytiruvchi, yangi hamkorlik aloqalarini yaratish imkonini beruvchi maydon vazifasini ham bajaradi.

Etik-normativ tahlil virtual makonda axloqiy me'yorlar tizimining yetarlicha shakllanmaganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, foydalanuvchilar orasida axloqiy mas'uliyatning yetishmasligi, hurmatsizlik, qalbaki kontent tarqatish, shaxs sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilish kabi holatlar keng tarqalgan. Bu esa virtual muloqot madaniyatini mustahkamlash, axloqiy me'yorlarni tartibga soluvchi mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayni paytda, ijobiy natijalardan biri sifatida, ayrim onlayn hamjamiyatlar va platformalarda axloqiy qoidalar tizimi shakllanib borayotgani, foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va madaniyat tamoyillarini rag'batlantiruvchi mexanizmlar paydo bo'layotgani ham kuzatildi.

Tizimli tahlillar shuni tasdiqladiki, virtual muloqot jarayoni jamiyatning umumiy kommunikativ tizimining uzviy qismiga aylangan bo'lib, shaxs, jamiyat, texnologiya va axloqiy me'yorlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarni vujudga keltirmoqda. Bu bog'liqliklar shaxslararo munosabatlarda yangi axloqiy me'yorlarga ehtiyoj tug'dirmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli madaniyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, onlayn axloqiy xulq-atvor normalarini shakllantirish virtual muloqotning barqaror va sog'lom shaklini yaratish uchun muhim omil hisoblanadi.

Yuritilayotgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborotlashgan jamiyat sharoitida virtual muloqot jarayoni shaxslararo munosabatlarning mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirib, an'anaviy kommunikatsiya tizimidan farq qiluvchi yangi ijtimoiy-psixologik va axloqiy munosabatlar modelini vujudga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalarning chuqur ildiz otishi natijasida insonlarning ijtimoiy hayoti, shaxslararo aloqalari, o'zini namoyon etish mexanizmlari va kommunikativ strategiyalari sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Mazkur o'zgarishlar bir tomondan muloqotning qulaylashuviga, erkinlikning kengayishiga, ijtimoiy hamkorlikning yangi shakllarini shakllanishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan shaxs va jamiyat o'rtasidagi axloqiy, madaniy hamda psixologik mas'uliyatning zaiflashishi kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Virtual makondagi asosiy salbiy tendensiyalardan biri — anonimlikning muloqot jarayoniga chuqur kirib kelishi, bu holat esa shaxsning axloqiy me'yorlarga amal qilish darajasini pasaytirib, kiberagressiya, manipulyatsiya, haqoratli xabarlar, dezinformatsiya, shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga tahdidlar kabi illatlarni kuchaytirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, shaxsning virtual muhitda o'ziga xos "ikkinchi identitet" yaratishi, o'zini turlicha ko'rsatishi yoki yashirinib olishi axloqiy mas'uliyatning susayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarning nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ham axloqiy nomuvofiqliklar ko'lamining kengayishiga sabab bo'lmoqda.



Biroq virtual muloqot faqat muammolar maydoni emas, balki yangi ijtimoiy imkoniyatlar, ijodiy o'zini ifoda etish, professional hamkorlikni kengaytirish va transmilliy muloqot mexanizmlarini kuchaytiruvchi samarali muhit sifatida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me'yorlarni mustahkamlovchi hamjamiyatlar shakllanmoqda, foydalanuvchilar o'rtasida axloqiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlovchi, o'zaro hurmatga asoslangan muloqot tamoyillarini rag'batlantiruvchi amaliyotlar paydo bo'lmoqda. Bu esa virtual makonning ijobiy axloqiy istiqbollarini ham namoyon etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, virtual muloqotda shaxslararo munosabatlarning transformatsiyasi murakkab va ko'p qatlamli jarayon bo'lib, u shaxsning identifikatsiyasi, kommunikativ xatti-harakati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy moslashuvchanligiga bevosita ta'sir qiladi. Virtual muloqotning axloqiy jihatlari e'tibordan chetda qolsa, jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois virtual makonda axloqiy madaniyatni shakllantirish, raqamli axloq kodekslarini joriy etish, foydalanuvchilarda kommunikativ mas'uliyatni kuchaytirish, yoshlar o'rtasida media-etikani rivojlantirish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u virtual muloqotning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rnini, uning axloqiy konsepsiyalari, transformatsiya mexanizmlari va zamonaviy kommunikativ madaniyat bilan bog'liq yangi ilmiy qarashlarni taklif etadi. Amaliy jihatdan esa mazkur tadqiqot virtual makonda sog'lom muloqot muhitini yaratish, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va raqamli madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
2. Turkle, S. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. New York: Penguin Press, 2015.
3. Floridi, L. The Ethics of Information. Oxford: Oxford University Press, 2013.
4. Baym, N. Personal Connections in the Digital Age. Cambridge: Polity Press, 2015.
5. Boyd, D. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press, 2014.
6. Назаров, М.М. Интернет-коммуникации и социальные трансформации. Москва: Аспект Пресс, 2020.
7. Toffler, A. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980.
8. Абдурахмонов, Қ., Халилов, Н. Axborotlashgan jamiyat va kommunikatsiya madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
9. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
10. Ризаев И. И. Механизмы самоорганизации социальных систем //Экономика и социум. – 2019. – №. 3 (58). – C. 368-371.
11. Usmonov F. Problems of modern computer ethics //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 26-32.
12. Abdizaitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).